



O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODNING MA'NAVYI-AXLOQIY TARBIYASIDA BAYRAMLARNING O'RNI.

Niyozmatov Anvar

Urganch davlat

pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar

fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

+998942308940

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy axloqiy kamolini yuksalishida xalq o'yinlarini tutgan o'rni ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *“Hadis”, marosim, “guvoh”, Xirmon to'yi, “Baxt uyi”, odat, Navro'z, Qovun sayli, Lola sayli*

Eng qadimgi davrlardan bayramlar inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'gan. Zero ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zguvchi. Arxeologik qazilmalarda topilgan osori atiqalar, qadimgi qo'lyozmalar, avloddan – avlodga o'tib kelayotgan xalq ijodi namunalari, hozirgacha saqlanib qolgan ko'hna odatlar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. “Avesto”, “Qur'oni Karim”, “Hadis” kabi qadimgi tarixiy manbalar azaliy bayram va marosimlarni o'rganishda bebaho vosita hisoblangan. Sharq mutafakkirlari Firdavsiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Ogahiy va boshqa allomalarimizning bayram – marosimlarga oid mulohazalari Xorazm bayramlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Aynan manashu mutafakkirlar xalqimiz bayramlarini o'rgangan shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari qadimgi G'arb tarixchi – olimlari Geradot, Strabon, o'tgan zamonlarda O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan Ibn Batuta, Klavixio, H. Vamberi; xorijlik olimlar V.V. Bartold, N.Ya. Bichurin, S.P.Tolstov asarlaridagi ma'lumotlar bayramlarni o'rganishda yaxshi manbalar hisoblanadi.

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o'rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o'ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. “An'ana”, “odat”, “marosim” bevosita “bayram” tushunchasi bilan bog'liq. An'ana - tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga kelgan, avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. Ana'na o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singan umum yoki ma'lum guruh tomonidan, qabul qilingan tartib va qoidalarning majmuasi hisoblanadi.

O'tkazgan tadqiqotimiz natijasida “xalq an'analari” tushunchasining ijtimoiy – manaviy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: xalq an'analari – uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy – manaviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy – ijodiy faoliyati asosida, atrof – muhit, tabiat, mexnat jarayoniga bog'liq holda avloddan –

avlodga o‘tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu – o‘ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy – madaniy merosga aylangan.

O d a t (urf-odat)-kishlarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatga takrorlanib turuvchi xatti-xarakat, ko‘pchilik tamonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish, mexmonlarga alohida xurmat ko‘rsatish, bayram arafasida keksa qariyalar, kasal o‘jiz, qiynalgan kishilar holidan habar olish, qo‘ni- qo‘shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o‘zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

“Odat” degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo‘lib, u ma’lum sharoit tasirida vujudga kelib, kishining fel-atvoriga mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o‘z-o‘zidan beixtiyor bajariladigan xarakat manosini bildiradi.

An’ana ijtimoiy xayot, mexnat, madaniyatning barcha hodisalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Odat esa muayyan bir kishining turmush –tarzi, xatti-xarakati, xulq-atvori, muloqati va oilaviy munosabatlarida namayon bo‘ladi.

M a r o s i m – inson hayotidagi muxim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruxiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, umum qabul qilingan tartib –qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan ism qo‘yish, nikohdan o‘tish, dafn qilish, xotirlash, ekishga kirishish (urug‘ qadash), o‘rimga kirishish marosimlari va hokozolar.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim xodisalar bo‘lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni (masalan, tug‘ulish, uylanish, o‘lim kabilar) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimlarni o‘tkazishda avloddan –avlodga o‘tadigan, rasmiy an’analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimga, bo‘layotgan voqeaga “guvoh” sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g‘ami, quvonchiga sherik bo‘lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Xar bir marosimning o‘ziga xos umum qabul qilingan ko‘rinishi (boshlanishi, oxiri, o‘rtasi) bo‘ladi.

Inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an’ana ham odat ham, marosim ham mujassamlashadi. Buni quyidagi misolda ko‘rish mumkin: yoshlar voyaga yetganida – yigitlar uylanadi, qizlar turmushga chiqadi. Bu avloddan – avlodga o‘tib kelinadigan an’ana xisoblanadi. Yigit-qizning oila qurishi uchun nikoh to‘yi o‘tkaziladi. Nikoh to‘yi o‘tkazish esa insoniyat hayotiga singan, muayyan qoidaga, ma’lum tartibga ega bo‘lgan urf-odat hisoblanadi. Nikoh to‘ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinning nikohdan o‘tishidir. Xar bir davrda bu to‘y bilan bog‘liq o‘ziga xos odatlar vujudga kelgan. Masalan, hozirgi paytda maxsus bezatilgan mashinalarda ko‘chalarda yurish, guvohlar bilan “Baxt uyi”ga borish, nikohdan o‘tayotganda davlat madhiyasini yangrashi, “Baxt uyi” hodimlarining savollariga javob berish, kerakli xujjatlarga imzo chekish, nikoh uzuklarini almashish kabi odatlarga amal qilinadi. Bu rasmiy va tantanali ravishda o‘tkaziladigan marosimdir. Nikoh to‘yidagi odatlarning ado etilishi kelin-kuyov, ularning qarindosh urug‘, yor – u do‘stlari uchun haqiqiy shodiyona hisoblanadi.

“An’ana”, “odat”, “marosim” bir biri bilan bevosita bog‘liq hodisadir. Shu bois an’analarining tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim bo‘lishi ham mumkin. Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutahxasislarning ishlab chiqarishga borib ish boshlashi odat tusiga kirib qolgan. Bu muhim voqea munosabati bilan an’anaviy

tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi yoshlarni tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish o'z-o'zidan marosimga aylanadi.

Ba'zi holatlarida an'ana, odat va marosim tushunchalari alohida ishlatiladi, ular mavhum ma'noni anglatilishi mumkin. Bunday payta ularga aniqlovchi so'zlar qo'shib, masalan "an'anaviy", to'y marosimi, nafaqaga kuzatish marosimi tarzida qo'llaniladi. "Marosim" so'zi jamoatlik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ma'nosini bildiradi.

Ba'zi marosimlar (dafn qilish va qayg'uli xodisalardan tashqari) bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi marosimlar bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi marosimlar bayram kunidan boshqa paytlarda tashkil qilinsa ham u bayram tusini oladi. Masalan, "chigit qadash", "diplom topshirish" marosimlari o'z-o'zidan bayramga aylanadi. Tantanal ravishda attestat topshirish marosimi xar bir o'spirin uchun katta bayram sanaladi. Bular marosim bayramlarining tarkibiy (yoki asosiy) qismi ekanligini bildiradi. "An'ana", "marosim", "bayram" atamaları o'zgarimas tushunchalar emas. Zamona taraqqiyoti va turmushidagi o'zgarishlar tasirida tushunchalar mazmuni ham kengayib boradi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tasirida talabga javob bermay an'analar va bayramlar asta-sekin unitila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo'lgan an'analar taraqqiy etadi. Masalan, Navro'z, Qovun sayli, Lola sayli va hakozi bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda. Xalq turmushining o'zgarishi unga mos an'analarni vujudga keltiradi. O'zbek xalqi hayotida ham yaqin yillar ichida avvallari mavjud bo'lmagan ko'plab ijtimoiy va shaxsiy oilaviy an'ana, marosim va bayramlar paydo bo'ldi.

Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda, davriy nashrlarda "an'anaviy bayramlar", yangi bayramlar" so'zlari ishlatila boshladi.

"An'anaviy bayramlar" deganda ma'lum vaqtda muntazam o'tkazib turiladigan azaliy madaniy ommaviy tadbirlar Gul bayrami, Qovun sayli, Lola sayli, Xirmon to'yi (hozirgi paxta bayrami) nazarda tutiladi. Chunki ular qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lgan xalq bayramlaridir.

XX asrning ikkinchi yarmida, zamon o'zgarishi bilan keyingi davrda xayotimizga tug'ulgan chaqoloqlarning ota onalariga guvoxnoma yoki voyaga yetgan yoshlarga pasport topshirish, o'quv yurti bitiruvchilarini tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish, birinchi maosh tantanasi, Avlodlar uchrashuvi, Oltin va Kumush to'ylar tantanali nafaqaga kuzatish tadbirlari kirib kelgan edi. Xozirgi paytga kelib, ular "yangi" emas, balki "an'anaviy tadbir" bo'lib qoldi.

Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. Odatda, bayram deganda biror-bir muxum hodisa, voqea, sanani ko'pchilik bo'lib ko'tarinki ruxda, xursandchilik bilan nishonlanish tushuniladi. Shu boisdan Beruniy bayramlarni hayotdagi eng muhim kunlari desa Maxmud Qashg'ariy shodlik va xursanchilik kuni deb tariflaydi[1].

Darhaqiqat, bayram odatdagidan ko'ra ko'tarinkiroq kafiyatni vujudga keltiradi. Bayram chog'ida hamma boshqa kunlarga qaraganda xursand, shod va baxtiyor bo'ladi.

"Bayram- deb yozadi A. I. Mazayev- bu ma'lum vaqtdagi ideal hayotdir.[2] Bayram kunlarida odamlar" qisqa vaqitga bo'lsada, o'zlarini siyosiy mehnatdan tashvishdan, g'am

g'ussadan qaramlikdan, qarizdan xoli erkin sezadi,- deydi M.Qadirov. Zotan, bayram kunlari xamma teng hur va ozotdir, istaganicha yayrashi ko'nglidagini aytishi, xoxlaganicha o'ynashi, kulishi, maynavozchilik qilishi , kimningdir ustidan kulishi mumkun. Xech kim buni man etmaydi[3].

Bayram hayotning davomi, muhim qismidir. Bayram shaxs, oila, jamiyat, millat, davlat, xalqaro hayotdagi eng muhim xodisa, voqea - xodisalarni qayd etadi, ularni nishonlashga imkoniyat yaratadi. U kishilarning hayoti, faoliyatida erishgan yutuqlarini ifodalaydigan hodisadir. Xorazm xalqida yirik ishlarning boshlanishi va yakunlashi odatda bayramga aylanadi. Yangi xosil mavsumining boshlanishi va ilk urug' qadash jarayoni ham dehqonlar hayotida muhim voqea bo'lganligi bois bayramona kayfiyatda o'tadi. Keyingi davrda xar bir yirik sanoat inshootining ochilish bayram holatida uyushtiriladi.

Bayram insoniyatning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga, g'alabalardan faxrlanishga, ertangi kun uchun rejalar tuzishga , kelajakka umid bog'lashga yordam beradi. Shu boisdan ham, bayram arafasida kishilar bir –birlarini tabriklashadi, yashi istaklar bildirishadi.

Bayramlar vaqtning monotonligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan “shodlik sur'ati” baxsh etadi. Shu sababli, qadimdan bayramlar vaqtning o'ziga xos o'lchovi hisoblangan. Hozir ham bayram kunida, maslan, yangi yil nishonlayotganda muayyan vaqtda o'tganligini, ya'ni o'tgan yangi yil bilan hozirgi Yangi yil orasida yana bir yil o'tganligini hamma biladi. Bayram kunlarida kishilar “Oradan shuncha vaqt o'tibdi-ya?!” degan so'zlarni ko'p bora aytishadi. Bayramlar vaqtining qadriga yetishga, uni e'zozlashga da'vat qiladi.

Bayramlar xar bir xalqning o'ziga xos qadriyatlarini aks ettiradigan “ko'zgu” sanaladi. Chunonchi kishilar bayram chog'ida chiroyli kiyimlarni kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashadi, o'z qobiliyatlarini namoyish etadilar. O'sha kuni hamma ko'tarinki kayfiyatda bo'ladi.

Bayramlar erkinlik kuni hisoblanadi. Ayniqsa umumxalq bayrami kunida hamma dam oladi. Bu kunda xamma o'z tashvishlari, dard-u alamlarini bir zumga bo'lasa – da unutadi, o'zini shod –xursand ko'rsatishga xarakat qiladi.

Bayram kunida kishilar o'rtasida boshqa kunlarga qaraganda muayyan darajada yaqinlik, xamkorlik vujudga keladi. Qadimda bu kunda hamma bir qozondan ovqat yegan, bir hil tamosha ko'rgan, bitta joydagi saylgohda sayr qilishgan. “Aynan bayram, - deydi A. I.Arnoldov, - dunyo madaniyati xazinasiga yig'ilgan eng qimmatli boyliklarni o'zida mujassamlashtiradi”[4]. O'zbek xalqining, jumladan, xorazmliklarning bayram – marosim madaniyati shu qadar boy va rang – barangki, ularni tabiat, mehnat, diniy e'tiqod, oilaviy hayot, ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma'rifiy, san'at va sport kabi ko'plab turlarga bo'lib tadqiq etish mumkin.

O'zbekiston bayramlarini tashkil qilish tajribasi MDH da eng ilg'or deb tan olinmoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak, dunyoning ko'pgina mamalaktlaridan kelgan mutaxassis olimlar O'zbekiston bayramlari saviyasiga tan berish bilan bir qatorda bu yerdagi tajribalarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. “Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q” deganlaridek, o'zbek bayramlarini ko'proq chet el olimlari tadqiq



etishmoqda. Xususan, amerikalik sotsiolog olim Lora Adams Vatanimizga kelib, O'zbekiston bayramlariga oid doktorlik dissertatsiyasini yozgan va uni Amerikada yoqlagan. Shunday qilib, eng qadimgi davrlardan boshlab shakillana borgan o'zbek xalqi bayramlarini mahsus va har tomonlama tadqiq etishga katta ehtiyoj bor. Xorazm xalqi bayranlari ham yuqoridagi fikrlarga bevosita aloqadordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Махмуд Қошғарий. “Девони лугатит турк”. Т.А.И.Т. -Т: “Фан”1963.с.447.
2. Мазаев А.И.Праздник как социально-художественное явление -М.:Наука 1978,с.172
3. М. Қадиров.Томоша санъати ўтмишидан лавхалар .Т.: “Фан” ,1993, с.81.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998. 21-бет.